INSTRUKSIYA · 15 QADAM

# Yakka instruktor uchun instruksiya


Telefoningizdan 2–3 daqiqada kabinet ochasiz: o‘quvchilar bo‘sh vaqtingizni ko‘rib, o‘zi yoziladi, darslar va eslatmalar Telegram ichida. Kirish — Telegram orqali.

1-QISM · 5 QADAM

## Kabinet ochish


### 1 avtohayda.uz/business ni oching

«Instruktorman» tanlangan holda «Bepul boshlash»ni bosing va Telegram orqali kiring. Botdan ham boshlash mumkin: @avtohaydabot → «Start».




## 2 Ism va hudud

Ism-familiyangiz o‘quvchilarga shunday ko‘rinadi. Shahar va tumanni tanlang — katalogda shu tumanda chiqasiz. Telefon raqami Telegram’dan olinadi.




## 3 Ish vaqti

Odatiy ish vaqti to‘ldirilgan — kunlarni bosib, o‘zingizga moslang. O‘quvchilar faqat shu soatlarga onlayn yoziladi.




## 4 Dars turi va narxi

Qaysi darsni berishingizni tanlang va bir soatlik narxni yozing. Boshqa dars turlarini keyin «Dars turlari va narxlar»da qo‘shasiz. «Qonunga muvofiq dars beraman» belgisini qo‘yib, «Davom etish»ni bosing.




## 5 Tayyor — yozilish havolangiz

Havolani o‘quvchilarga, guruh va kanalingizga yuboring. «Botni ochish»ni bosing — yangi yozilishlar va ertangi reja botga keladi.





**2-QISM · 6 QADAM**

# Kundalik ish


## 6 «Jadval» — kunlar bo‘yicha darslar

Pastki menyudagi «Jadval»da kunni tanlang: darslar, bo‘sh soatlar va «+ Yozish». Bugungi reja va «keldi» belgisi — «Bugun» ekranida.





## 7 Ish vaqtini o‘zgartirish

«Boshqaruv → Ish vaqti»: har kunning soatlari. Bir kunni yopish yoki qo‘shimcha vaqt ochish — «Jadval»dagi kun ichida.




## 8 Sahifangiz

«Boshqaruv»da ismingizni bosing: rasm, tajriba, tavsif, mashina. To‘liq sahifani o‘quvchilar ko‘proq tanlaydi. «Tekshirilgan» belgisi — hujjatlaringizni AvtoHayda jamoasiga ko‘rsatsangiz.





## 9 Yozilish havolasi va QR

«Boshqaruv»dagi havolani «Ulashish» bilan yuboring yoki QR kodni chop eting — mashinaga, e’longa.




## 10 O‘quvchi nimani ko‘radi

Bo‘sh vaqtlaringiz kunlar bo‘yicha. O‘quvchi vaqtni tanlaydi va Telegram orqali yoziladi — sizga botda xabar keladi.




## 11 O‘zingiz yozish

Telefon orqali kelishgan o‘quvchini «Tez yozish» bilan kiriting: vaqt, o‘quvchi (yangisi — ism va raqam), «Saqlash». Unga ham eslatma boradi.





**3-QISM · 4 QADAM**

# Tarif


## 12 Tarif va sinov muddati

«Boshqaruv → Tarif»: sinov qachon tugashi, keyin nima bo‘lishi va narx. Pro ulash — shu yerdagi «AvtoHayda jamoasiga yozish».





## 13 Pro tugasa — Bepul tarif

Kabinet ochiq qoladi, lekin onlayn yozilish va yangi darslar yopiladi. Tepada shu haqida eslatma turadi.




## 14 Bepulda yangi dars — yopiq

«Tez yozish» Pro imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Oldin yozilgan darslar, ularning eslatmalari va «keldi» belgisi ishlayveradi.




## 15 Bepulda sahifa — faqat kontakt

O‘quvchi sahifangizni katalogda topadi, narxlarni ko‘radi va «Qo‘ng‘iroq» yoki Telegram orqali bog‘lanadi.



## Bepul va Pro: nima kiradi, shartlar

BEPUL

### 0 so‘m

- ✓ Sahifa va katalogda ko‘rinish: narxlar, mashinalar, sharhlar
- ✓ Telefon va Telegram tugmasi — o‘quvchi sizga qo‘ng‘iroq qiladi yoki yozadi
- ✓ Instruktorlar sahifada — soni cheklanmaydi
- ✓ Yozilgan darslar Pro tugagach ham o‘z kuchida

PRO

### 149 000 so‘m — bir instruktor uchun, oyiga · QQSsiz

- ✓ Onlayn yozilish: o‘quvchi bo‘sh vaqtingizni ko‘rib, o‘zi yoziladi
- ✓ Jadval, tez yozish, ko‘chirish, eslatmalar, kutish ro‘yxati
- ✓ Administrator, bir nechta filial, jamoaning yonma-yon jadvali
- ✓ Paketlar, takroriy darslar, pul hisoboti, «Kelasizmi?» so‘rovi
- ✓ Telegram kanal va guruhga avtomatik e’lonlar, aksiyalar

- ✓ Har yangi kabinetga 30 kun Pro bepul — karta va shartnoma so‘ralmaydi.
- ✓ Sinov tugagach Pro yana 7 kun ishlaydi. To‘lanmasa, kabinet Bepul tarifga o‘tadi: sahifa katalogda kontakt bilan qoladi, onlayn yozilish yopiladi. Hech narsa o‘chmaydi.
- ✓ Narx onlayn yozilish qabul qiladigan instruktorlar soniga qarab: 1 instruktor — 149 000, 4 instruktor — 596 000 so‘m oyiga. Administratorlar va filiallar narxga qo‘shilmaydi.
- ✓ Yillik to‘lovda — 10 oy narxi.
- ✓ Pro ulash hozircha AvtoHayda jamoasi orqali: «Boshqaruv → Tarif» → «AvtoHayda jamoasiga yozish».
- ✓ Dars pulini o‘quvchi sizga to‘laydi — AvtoHayda foiz olmaydi.